

Ey, farzand!



17:39 / 22.10.2018 5757

Imom G'azzoliy haqlarida bir necha so'z

Hujjatul islom Imom G'azzoliy hazratlari bir necha asrlarda bir keladigan buyuk islom mutafakkirlaridan biri sanaladi. Hijriy 450 (m.1058) yilda Eronning Xuroson viloyati, Tus shahrida dunyoga kelib, hijriy 505 (m. 1111) yilda shu yerda vafot etganlar. Hayratda qolarli darajada teran bilimga ega bo'lgan bu ulug' zot davrining barcha ilmlari bo'yicha yetuk bo'lganlar, zohiriy va botiniy ulamolar orasida katta jarlik yuzaga kelgan bir paytda har ikki tomonni murosaga keltirgan benazir olimdir. Qisqa umrlari davomida turli sohalarda va mavzularda ko'plab ulug' asarlar yozdilar, ta'lif etdilar. «Ihyoi udumid-din» ilm olamida ma'nolari chuqurligi bilan mashhurdir. Boshqa barcha asarlari ham u zotni dunyoga fazilat va kamolot sohibi sifatida tanitdi. Shogirdlaridan juda ko'pchiligi u zot yonida zohir va botin ilmlarining shavqlarini totib, maqsadlariga yetdilar. O'zidan yiroqda bo'lganlarga maktublar yo'llab ilm va irshod maqomida xizmatlarini davom etdirdilar va davom etdirmoqdalar, bu nurlardan kelajak avlodlar ham bahramand bo'ladilar, inshaalloh. Bunday ziyo manbasida, ilm osmonida pirlant (brilliant) qandillarga, bilimdonlik zaminida nur chashmalariga aylangan «Al-munqizu minaz zalol» va «Ayyuhal valad» asarlari shular jumlasidandir. Islom olami, butun dunyo 900 yildan buyon hazrat G'azzoliy asarlaridan o'rganib kelmoqda, bu asarlar turli tillarga tarjima qilingan. Sharq

mamlakatlaridan tashqari Ovro'pa, hatto Amerikada u zot nomida ilmgoh (institut) lar ochilib, hayoti va ilmiy faoliyatiga bog'liq tadqiqotlar olib borilmoqda. G'azzoliy kabi zotlarning nufuzli asarlari har bir asr, har bir jamiyat uchun har doim faqat foyda keltiradi. Bizdek ojiz bandaning xatolarini Alloh mag'firat qilib, siz aziz o'quvchilarning fikr-mulohazali so'zlari bilan o'zi tuzatib, to'g'ri yo'lga boshlasin. Xato-kamchiliklar bizdan, muvaffaqiyat Alloh dandir. Unga behad hamdu sanolar, Payg'ambarimizga salovatlar, ahli baytiga, sahobalariga G'azzoliydek, Imom A'zamdek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Imom Marg'inoniy kabi olim, aziz avliyolariga, U zotga ergashganlarga, U zotni sevganlarga salomlar bo'lsin. Bu dunyoda barchaga, u dunyoda esa mo'minlarga marhamatli bo'lgan Alloh nomi bilan «Ayyuhal valad» ("Ey, farzand") mutolaasini boshlaymiz.

Rahmon va Rahim bo'lgan Alloh nomi bilan boshlayman

Birinchi bo'limga kiruvchi odoblar

Ey, farzand! Odob bir necha ko'rinishga ega. Inson avvalo kiyinish odoblarini yaxshi bilmog'i lozim. Shuningdek eshik ochish, hojatini o'rinlatish, tozalanib hojatxonadan chiqish, tahorat olib masjidga borish, namoz o'qish, masjiddan chiqish va uyiga yoki ish joyiga kirish, odamlar bilan uchrashish kabi odoblarga ham rioya etishi kerak. Rajab, sha'bon va ramazon oylariga xos odoblar bilan birga qo'l, oyoq, til, quloq va tanosil a'zolariga tegishli odoblarni saqlash ham zarur. Qo'ni-qo'shni haqlari, muhtojlarning ehtiyojlarini qondirish, bozor-o'charga borish, qarz olish-berish, olimlarni, oriflarni, murshidlarni ziyorat etish, ularning majlislarida qatnashish odoblari ham bor. Kiyinish, yurish-turish, kimlarga qanday qarash, kimlarga qaramaslik, qanday suhbatlashish, mehmon qabul qilish va mehmon bo'lish odoblari, taomlanish va taomlantirish odoblari, qiradirda, tog'u toshda va istirohat maskanlarida bo'lish odoblari, safar va musofirlik, xasta zisrati, er-xotin munosabatlariga tegishli odoblarini bilib, ularni saqlash kerak.